Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdamiyovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKIOTLARNI MOLIYAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIYAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abduraimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES.....	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING MODELLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1330
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	



JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING MODELLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich

O'zbekiston Milliy universiteti "Makroiqtisodiyot",
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti,
"Madaniyat va san'at menejmenti" kafedralari dotsenti,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

Annotatsiya. Maqolada kreativ iqtisodiyot va industriyaning jahon miqyosidagi o'rni, iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari, tashqi savdodagi hamda bandlikdagi ulushi tahlil etilgan. Kreativ iqtisodiyot tushunchasiga xorijiy olimlar tomonidan berilgan ta'riflarning nazariy hamda uslubiy jihatlarini o'rganilgan. Jahonda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha iqtisodiy fanda shakllangan Anglo-Sakson, Kontinental, Osiyo va Gibrid modellarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakatimiz amaliyotida kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish modellaridan ijodiy foydalanish mumkin bo'lgan ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kreativ iqtisodiyot, kreativ industriya, kreativ sinf, intellektual mulk, innovatsiya, kreativ mahsulot va xizmatlar, venchur kapital, startup, davlat grantlari va xususiy kapital, milliy fondlar, subsidiya, raqobatbardoshlik, mualliflik huquqi, kreativ xizmatlar eksporti, modellar.

Abstract. This article analyzes the role of the creative economy and industry globally, its economic development trends, and its share in foreign trade and employment. It also examines the theoretical and methodological aspects of definitions of the creative economy presented by international scholars. It also examines the characteristics of the Anglo-Saxon, continental, Asian, and hybrid models developed in economics for the development of the creative economy globally. A scientific conclusion and practical recommendations have been developed that can be creatively applied in the development of creative economy models in our country.

Key words: Creative economy, creative industry, creative class, intellectual property, innovation, creative products and services, venture capital, startup, government grants and private capital, national funds, subsidies, competitiveness, copyright, creative services export, models.

Аннотация. В статье анализируется роль креативной экономики и индустрии в мире, тенденции развития экономики, доля во внешней торговле и занятости. Проанализированы теоретико-методологические аспекты определений понятия креативной экономики, представленных зарубежными учёными. Проанализированы особенности англосаксонской, континентальной, азиатской и гибридной моделей, сформированных в экономической науке для развития креативной экономики в мире. Разработаны научное заключение и практические рекомендации, которые могут быть творчески использованы в практике развития моделей креативной экономики нашей страны.

Ключевые слова: креативная экономика, креативная индустрия, креативный класс, интеллектуальная собственность, инновации, креативные продукты и услуги, венчурный капитал, стартап, государственные гранты и частный капитал, национальные фонды, субсидия, конкурентоспособность, авторское право, экспорт креативных услуг, модели.

KIRISH

Jahon xo'jaligida kreativ iqtisodiyot jadal sur'atlarda rivojlanayotgan sohalar qatoridan o'rin egallab, insonlarning ijodkorligi asosida innovatsiyalar va intellektual mulk o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikka tayangan noodatiy faoliyat yo'nalishlarini o'z ichiga olgan soha sifatida namoyon bo'lmoqda. U dizayn, san'at, kino, axborot texnologiyalari (IT), qurilish, arxitektura, moda kabi tarmoqlarda keng tarqalganligi bilan xarakterlanadi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, so'nggi yillarda kreativ iqtisodiyot sohasining o'rtacha yillik daromadlilik darajasi 2,3 trln AQSH dollariga teng bo'lib, bu jahon YAIM hajmiga nisbatan 3,1 foizni tashkil etadi. Shuningdek, xalqaro miqyosda ushbu sohaning eksport hajmi 250,0 mlrd AQSH dollarini



tashkil etadi. Soha bo'yicha bandlik darajasi ham global miqyosda ortib borib, bugungi kunda qariyb 30,0 mln kishiga yetgan¹.

So'ngi yillarda O'zbekistonda ham kreativ va innovatsion sohalarda faoliyat yuritadigan tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, kreativ, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni joriy etish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirish, aholining turmush darajasi hamda farovonligini oshirishga qaratilgan bir qator aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 2024-yilning 3-oktyabrida O'zbekiston Respublikasining "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi O'RQ-970-son qonuni²ning qabul qilindi. "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi qonunning maqsadi kreativ iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish va ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Hujjat kreativ iqtisodiyot sohasidagi asosiy tushunchalarni va kreativ industriya subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlarini mustahkamlaydi.

Global darajada, shu jumladan mamlakatimizda kreativ iqtisodiyotning tutgan o'rni va uning ahamiyati tobora oshib borayotganligini inobatga olgan holda, jahon amaliyotida ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha shakllangan modellarni qiyosiy taqqoslash asosida ulardan mamlakatimiz amaliyotida ijodiy foydalanish mumkin bo'lgan jihatlarini tadqiq etishni lozim topdik.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Postindustrial jamiyat rivojlanishida muhim o'ringa ega bo'lgan kreativ iqtisodiyot borasidagi ilmiy qarashlar iqtisodiy fanda XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida keng ommalashib, ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar soni yildan yilga ortib bormoqda. Tahlillarga ko'ra, 2001-yilda iqtisodiy fanda J. Howkins tomonidan ilk bor "kreativ iqtisodiyot" konsepsiyasi, uning mazmuni, mohiyati va zaruriyatini yoritishga urinish amalga oshirilgan. Olimning fikricha, "kreativ iqtisodiyot — bu intellektual mulkka asoslangan faoliyat turlarining tizimlashtirilgan yig'indisi bo'lib, bunda kreativ g'oyalar tijoratlashtiriladi". Howkins tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyaga muvofiq, kreativ iqtisodiyot insonlarning ijodiy faoliyati natijasida shakllangan g'oyalar asosida qiymat yaratilishiga asoslangan munosabatlar tizimi sifatida amal qiladi hamda bu jarayonlar milliy iqtisodiyot darajasida ham amalga oshishi mumkin³.

2005-yilga kelib, R. Florida tomonidan "kreativ sinf" konsepsiyasi ishlab chiqilishi, jamiyatda ijodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi ayrim ijtimoiy guruhlar — jumladan, dizaynerlar, ilmiy xodimlar, rassomlar, muhandislar kabi kreativ yondashuv va ijodiy fikrlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan kasb egalari iqtisodiy munosabatlar tizimining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini harakatlantiruvchi kuchlar sifatida baholanishiga olib keldi. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, "kreativ sinf" vakillari o'z mehnat faoliyatlarini tashkil etishda hududlar iqtisodiy rivojlanishining "3T" deb ataladigan omillariga — texnologiya, iste'dod va bag'rikenglikka tayanadi. Ushbu elementlarning har biri zarur, ammo yetarli shart emas: faqat uchtasining uyg'un mavjudligi ijodkor insonlarni innovatsiyalar yaratish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish jarayoniga jalb qilishi mumkin⁴.

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar "kreativ iqtisodiyot" nazariyasining shakllanishida fundamental ahamiyat kasb etib, ularni qiyosiy tahlil qilish orqali mazkur nazariyaning rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida kreativ iqtisodiyot va kreativ industriya tushunchalariga olimlar tomonidan berilgan ta'riflarning iqtisodiy mazmuni qiyosiy tahlil etilgan. Shuningdek, kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishning turli modellari o'rganilgan. Bu jarayonda kreativ va innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish davriga mos bo'lgan dialektik, tizimli yondashuv, qiyoslash, tahlil hamda guruhlash usullari tadqiqot metodologiyasini tashkil etadi. Modellashtrish usuli orqali tadqiqot obyekting asosiy xususiyatlari bayon etilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR


Jahonda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha turli modellar shakllangan bo'lib, ular mamlakatlarning iqtisodiy, madaniy va siyosiy sharoitlariga qarab farqlanadi. Shu nuqtayi nazardan, turli mamlakatlar iqtisodiyotida qo'llash mumkin bo'lgan kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha iqtisodiy fanda shakllangan Anglo-Sakson, Kontinental, Osiyo va Gibrid modellari mavjud. Quyida ushbu modellarning mazmuni, mohiyati hamda o'ziga xos jihatlarining tahlili keltiriladi (1-rasm).

1 Creative Economy Outlook 2024: Technical and Statistical Report. Geneva, UNCTAD, July, 2024. — 136 pages.

2 O'zbekiston Respublikasining "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi O'RQ-970-son Qonuni, 03.10.2024-y.

3 Howkins J. The Creative Economy: How People Make Money from Ideas. 2nd Edition. London: "Penguin Books Ltd", 2013. — 291 pages.

4 Флорида Р. Креативный класс. Люди, которые меняют будущее/ Пер. с англ. М.: Классика XXI, 2005.430 с

1-rasm. Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish modellari⁵

Kreativ iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishning “Aglo-Sakson” modeli Buyuk Britaniya va AQSH mamlakatlari amaliyotida keng qo'llanilib, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga ustuvor darajada ahamiyat qaratilishi bilan xarakterlanadi. Ushbu model amal qilishida davlatning aralashuvi minimal darajada bo'lib, ushbu iqtisodiy tizim amal qilishi bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy-huquqiy asoslarni ishlab chiqishi va infratuzilm ta'minotini talab darajasida ta'minlashi kerak bo'ladi⁶. Shuningdek, xususiy sektor kreativ iqtisodiy munosabatlar tizimini rivojlantirishda ustuvor ahamiyat kasb etib, kreativ iqtisodiyot tarkibiga kiruvchi sohalarni yuqori foyda olish maqsadida investitsiya kiritish asosida moliyalashtiradi. Kreativ iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotida venchur kapitali, xususiy investitsiyalar va startap ekotizimlari kabi dastaklardan keng foydalaniladi⁷. Tahlillarga ko'ra, “Aglo-sakson modeli” asosida kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish asosida Buyuk Britaniya milliy iqtisodiyotida ushbu tarmoq iqtisodiy rivojlanish drayveriga aylangan⁸ (1-jadval).

1-jadval. Anglo-Sakson modeli asosida kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish xususiyatlari⁹

№	Mezonlar	Izohlanishi
1	Iqtisodiy yondashuv	Bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan, xususiy sektor yetakchi ahamiyat kasb etadi, kuchli raqobat muhiti mavjudligi bilan xarakterlanadi
2	Davlatning roli	Davlat aralashuvi sezilsiz darajada, deyarli davlat aralashuvidan holi hisoblanadi, davlat huquqiy-institutsional asoslarni shakllantiradi, sohani infratuzilma ta'minotini amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi
3	Moliyalashtirish	Venchur kapital, xususiy investorlar, startap ekotizimlar ustuvor ahamiyat kasb etadi
4	Drayver sohalari	Kino, musiqa, IT, reklama, video-o'yinlar kabi sohalar ustuvor ahamiyatga ega

Anglo-Sakson modeliga muvofiq, kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish xususiyatlarini tadqiq etish asosida uning 1-jadvalda keltirib o'tilgan xususiyatlari mavjud ekanligi aniqlandi.

Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishning Fransiya, Germaniya va boshqa Yevropa Ittifoqi (YEI) mamlakatlari amaliyotida keng qo'llaniladigan yana bir modeli “Kontinental” model hisoblanadi. Tahlillar “kontinental” model amal qilishida davlatning sohani nazorati va qo'llab-quvvatlashi ustuvor bo'lib, ushbu yo'nalishdagi chora-tadbirlar madaniy siyosat doirasida amalga oshirilishini, jumladan, kreativ iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirishda davlat grantlari, subsidiyalar, kreativ sinflar uchun turli yo'nalishlardagi loyihalar tanlovlari e'lon qilinishi¹⁰ kabi xususiyatlar xos ekanligini ko'rsatdi. Kontinental model amal qilishida davlatning ijtimoiy

5 Muallif tomonidan tuzilgan

6 Xestanov R. Kreativnye industrii – modeli razvitiya. Sotsiologicheskiye obozreniye, T. 17, № 3, 2018. – s. 173-196

7 Bell D. & Jayne M. “The Creative Countryside: Policy and Practice in the UK Rural Cultural Economy”, Journal of Rural Studies, No. 26 (3), 2010. – pp. 209-218

8 Lopez-Leyva S., & Guzmán-Solano G. The Creative Economy as a Factor of Economic Development: Three Different Cases, One Common Objective. Culture. Society. Economy. Politics, No 1 (2), 2021. – pp. 41-58

9 Muallif tomonidan tuzilgan.

10 Bilan Y., Vasilyeva T., Kryklii O. & Shilimbetova G. The creative industry as a factor in the development of the economy: dissemination of European experience in the countries with economies in transition. Creativity Studies, No. 12 (1), 2019. – pp. 75-101



maqsadlariga erishishi ustuvor ahamiyat kasb etib, teatr, opera, madaniy meros va vizual san'at sohalari kreativ industriyaning yetakchi tarmoqlari sifatida namon bo'ladi¹¹ (2-jadval).

2-jadval. Kontinental modeli asosida kretiv iqtisodiyotni rivojlantirish xususiyatlari¹²

№	Mezonlar	Izohlanishi
1	Iqtisodiy yondashuv	Iqtisodiy jihatdan foyda olish ustuvor emas, ijtimoiy maqsadlar ustuvor bo'lib, bunda milliy madaniyatni saqlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga e'tibor qaratiladi
2	Davlatning roli	Davlat aralashuvi yuqori darajada bo'lib, madaniy siyosat asosida sohani nazorat qilib, uni qo'llab-quvvatlaydi
3	Moliyalashtirish	Davlat grantlari, subsidiyalar, ijodkor sinflar uchun turli loyihalar tanlovi orqali moliyalashtiriladi
4	Drayver sohalari	Teatr, opera, vizual san'at va madaniy meros

Kontinental model asosida kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish xususiyatlarini tizimli tadqiq etish asosida uni Anglo-Sakson modelidan tubdan farq qilishi aniqlandi. Ya'ni, modelning amal qilishida Anglo-Sakson modeli uchun umuman teskari bo'lgan holat, ya'ni davlat aralashuviga ustuvorlik qaratilishi va davlatning kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishni moliyalashtirish va qo'llab-quvvatlashdagi faolligi namoyon bo'ldi (3-jadval).

3-jadval. Osiyo modeli asosida kretiv iqtisodiyotni rivojlantirish xususiyatlari (Janubiy Koreya misolida)¹³

№	Mezonlar	Izohlanishi
1	Davlat-xususiy sheriklik ustuvorligi	Kreativ iqtisodiyot bo'yicha milliy brendni global darajada rivojlantirish va eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish
2	Moliyalashtirish manbalari	Milliy fondlar, davlat va xususiy kooperatsiyalar mablag'lari
3	Ustuvor sohalari	Kino industriyasi, multimediya, dizayn
4	Strategik dasturlar	"Soft Power", "Creative Korea" strategik dasturlar

Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishning Osiyo modelida Janubiy Koreya va Xitoy mamlakatlari amaliyoti muhim o'rin tutadi. Ushbu modelda davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan faol darajada foydalanilib, sohani moliyalashtirishda milliy fondan, davlat va xususiy kooperatsiyalar mablag'lari ustuvor hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, strategik dasturlar tuzish asosida milliy kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha tegishli islohotlar amalga oshirib boriladi¹⁴ (4-jadval).

4-jadval. Gibrid modeli asosida kretiv iqtisodiyotni rivojlantirish xususiyatlari (Braziliya misolida)¹⁵

№	Mezonlar	Izohlanishi
1	Davlat va jamoatchilik ishtiroki	Ijtimoiy innovatsiyalar va inklyuziv rivojlanishga ustuvorlik qaratiladi
2	Moliyalashtirish manbalari	Davlat grantlari, jumladan, jamoatchilik tashabbuslari asosida moliyalashtiriladi
3	Ustuvor tarmoqlar	Madaniy turizm, hunarmandchilik sohalarda etnik brendlarni rivojlantirishga erishilgan
4	Davlat tomonidan tartibga solish	Davlat aralashuvi nisbatan kamroq, ijtimoiy ta'sirni kengaytirishga ustuvorlik qaratiladi

Gibrid model asosida kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha jahonda Braziliya yetakchilik qilmoqda. So'nggi yillarda Janubiy Afrika Respublikasida ham ushbu modeldan foydalanilayotgani bilan u ajralib turadi. Tahlillarga ko'ra, mazkur modelda davlat va jamoatchilik ishtiroki kreativ industriyani rivojlantirishda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, hunarmandchilik, madaniy turizm kabi sohalarda etnik brendlarni shakllantirishga ustuvorlik berilib, ijtimoiy ta'sirning kuchli ekanligi bilan xarakterlanadi¹⁶.

11 Bilan Y., Vasilyeva T., Kryklii O., Shilimbetova G. The Creative Industry as a Factor in The Development of the Economy: Dissemination of European Experience in the Countries with Economies in Transition. Creativity studies, Vol. 12, Issue 1, 2019. – pp. 75-101

12 Muallif tomonidan tuzilgan.

13 Muallif tomonidan tuzilgan.

14 Cornell S. Building a creative economy in South Korea. Analyzing the plans and possibilities for the new economic growth. Korea's Domestic Economy. On Korea 2014: Academic Paper Series, KEI, vol. 7, 2014 – pp. 3-21

15 Muallif tomonidan tuzilgan.

16 Fleming T. The Brazilian Creative Economy: Situation Analysis and Evaluation of Newton-Funded Creative & Social Entrepreneurship Programme. Newton Fund, British Council. March, 2018. – 87 pages.



Shu o'rinda, Yangi O'zbekiston sharoitida kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish modellarining aynan qaysi turi ijodiy foydalanish imkoniyati yuqori ekanligi bo'yicha umumlashgan xulosalarni shakllantirish talab etiladi. Buning uchun dastlab kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish modellarining o'ziga xos xususiyatlari va mavjud kamchiliklarini tizimli tadqiq etish asosida modellarni davlatning ishtiroki, moliyalashtirish manbai, eksport salohiyati va madaniy ustuvorlik mezonlari asosida qiyosiy taqqoslanib, olingan natijalar 5-jadvalda keltirib o'tildi (5-jadval).

5-jadval. Kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish modellarining qiyosiy tahlili¹⁷

Model turi	Qiyosiy tahlil mezonlari			
	Davlatning ishtiroki	Moliyalashtirish manbai	Eksport salohiyati	Madaniy ustuvorlik
Anglo-Sakson	Past darajada	Venchur va xususiy kapital	Yuqori darajada	Tijoratga yo'naltirilgan
Kontinental	Faol darajada	Davlat grantlari	O'rta darajada	Ijtimoiy madaniyatni rivojlantirish
Osiyo	Davlat-xususiy sheriklik asosida	Davlat+xususiy kapital	Yuqori darajada	Milliy brendni ommalashtirish
Gibrid	O'rta darajada	Jamoaviy va davlat kapitali	Past darajada	Ijtimoiy inklyuzivlik

Yangi O'zbekiston sharoitida kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish modellaridan ijodiy foydalanish imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilish natijasida mamlakatda ma'lum bir modelni to'liq qo'llash emas, balki ularning har birining afzalliklarini o'zida mujassam etgan, ayniqsa davlat, jamoatchilik va xususiy sektorni o'zaro birlashtirish imkonini beruvchi "miks-gibrid" modelini ishlab chiqish zarurligi haqida xulosa qilindi. Ushbu model tarkibiy jihatdan kreativ iqtisodiyot sohasida davlat siyosati, ta'lim va inson kapitali, xususiy sektor ishtiroki, madaniy meros integratsiyasi hamda eksport strategiyasi kabi yo'nalishlardan tashkil topishi maqsadga muvofiq, deb hisoblanadi (6-jadval).

6-jadval. Yangi O'zbekiston sharoitida "miks gibrid" milliy modelini amalga oshirish yo'nalishlari¹⁸

№	Ustuvor yo'nalish	Amalga oshirish mexanizmi
1	Davlat siyosati	Milliy darajada kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish (qonun ishlab chiqilgan)
2	Ta'lim va inson kapitali	Art-dizayn, raqamli marketing, madaniyat menejmenti yo'nalishlarini rivojlantirish
3	Xususiy sektor ishtiroki	Kreativ startaplar uchun soliq imtiyozlari va akselerator dasturlari
4	Madaniy meros integratsiyasi	Hunarmandchilikni raqamlashtirish, jumladan, sohani "AR/VR" va "NFT" texnologiyalari bilan bog'liqlikda rivojlantirish
5	Eksport strategiyasi	"UzCreative" milliy brendini ishlab chiqish va global bozorlarga ishtirokini shakllantirish

Taklif etilayotgan "miks-gibrid" milliy modeli asosida mamlakatda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Ushbu holat iqtisodiy fanda shakllangan kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish modellari mamlakatimiz amaliyotida ijodiy tarzda qo'llanilishi uchun mos bo'lgan yo'nalishlarni to'liq qamrab olgan, kompleks yondashuvdan tizimli foydalanish bilan izohlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan qiyosiy tahlil natijalari asosida kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish modellaridan mamlakatimiz amaliyotida ijodiy foydalanish imkonini beruvchi quyidagi xulosalarga kelindi. O'zbekiston amaliyotida kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishda har to'rt modelning xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan milliy gibrid modelni shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda "davlat himoyasi + xususiy sektor + ijodkor sinflar" mexanizmini asos sifatida belgilash zarur. Shu bilan birga, mamlakatda "raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi" doirasida mahalliy hunarmandchilik, san'at, dizayn, kino va IT sohalarida faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlarini birlashtiradigan platformani yaratish lozim. Bundan tashqari, kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishda milliy brendni shakllantirish hamda kreativ industriyadagi mahsulot va xizmatlarning global raqobatbardoshligini oshirish orqali eksport salohiyatidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

17 Muallif tomonidan tuzilgan

18 Muallif tomonidan tuzilgan

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Creative Economy Outlook 2024: Technical and Statistical Report. Geneva, UNCTAD, July, 2024. – 136 pages.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Креатив иқтисодиёт тўғрисида”ги ЎРҚ-970-сон Қонуни, 03.10.2024 й.
3. Howkins J. The Creative Economy: How People Make Money from Ides. 2nd Edition. London: “Penguin Books Ltd”, 2013. – 291 pages.
4. Флорида Р. Креативный класс. Люди, которые меняют будущее/ Пер. с англ. М.: Классика XXI, 2005.430 с.
5. Хестанов Р. Креативные индустрии – модели развития. Социологические обозрение, Т. 17, № 3, 2018. – с. 173-196
6. Bell D. & Jayne M. “The Creative Countryside: Policy and Practice in the UK Rural Cultural Economy”, Journal of Rural Studies, No. 26 (3), 2010. – pp. 209-218
7. Lopez-Leyva S., & Guzmán-Solano G. The Creative Economy as a Factor of Economic Development: Three Different Cases, One Common Objective. Culture. Society. Economy. Politics, No 1 (2), 2021. – pp. 41-58
8. Bilan Y., Vasilyeva T., Kryklii O. & Shilimbetova G. The creative industry as a factor in the development of the economy: dissemination of European experience in the countries with economies in transition. Creativity Studies, No. 12 (1), 2019. – pp. 75-101
9. Cornell S. Building a creative economy in South Korea. Analyzing the plans and possibilities for the new economic growth. Korea’s Domestic Economy. On Korea 2014: Academic Paper Series, KEI, vol. 7, 2014 – pp. 3-21
10. Fleming T. The Brazilian Creative Economy: Situation Analysis and Evaluation of Newton-Funded Creative & Social Entrepreneurship Programme. Newton Fund, British Council. March, 2018. – 87 pages.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ““Рақамли Ўзбекистон – 2030” стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6079-сон фармони, 05.10.2020 й.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>